

**Karimova Shahodat Davronbek qizi**  
**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi**

---

### **MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA - VATAN MADHI**

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining betakror siymolaridan biri Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi. Shoirning she'rlari tahlilga tortilib uning ma'no-mazmuni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tasvir, andoza, iste'dod, ijodkor, timsol, obraz, qadriyat.

---

O'zbek xalqining sevimli farzandi ,otashqalb shoir Muhammad Yusuf 1954- yil 26- aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898- yilda mashhur Dukchi eshon qo'zg'oloni bo'lib o'tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug'ildi. Mana shu qishloqda beg'ubor bolaligi, sho'x-shodon o'smirliги o'tdi.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men -

Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim.

Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim -

Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..

Yodimga o't tushsin, etmasam yodlar -

Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.

Uni tavof etgan Mashrabdek zotlar,

Nechun qulluq qilmay Andijonga men! -

Shoir keyinchalik shunday misralar yozib qoldirgan.

Mustaqillikning ilk davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston”, deya kurash maydoniga tushgan, Istiqlolni baralla kuylagan, vijdoni uyg‘oq ijodkor Muhammad Yusufning hayot yo‘li, ijodi va qizg‘in ijtimoiy faoliyati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima ena allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko‘nglimda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992), “Saylanma”, “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Osmonimga olib ketaman”, “Ulug‘imsan, Vatanim” singari o‘ndan ortiq she‘riy to‘plamlari adabiyotimizning oltin merosiga aylandi.[2.296-298-bet]

Vatanini kuylamagan, madh qilmagan shoir dunyoda bo‘lmasa kerak. Muhammad Yusufgacha ham undan keyin ham qo‘liga qalam tutgan shoir borki, ona Vatanni ulug‘lab she‘rlar yozdi. Bu g‘oyat tabiiy hol. Muhammad Yusuf Vatanni qandaydir baland parvoz, she‘rdan she‘rga o‘tib yuruvchi jimjimador so‘zlar bilan emas, sodda va chuqur ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar bilan

tasvirlaydi. Uning she'rlaridagi Vatanni tasavvur qilish oson va huzurlidir. Qaysidir jihati bilan singlingizga, qaysidir jihati bilan onangizga yo otangizga o'xshab ketadi. Vatanning andozasini ulardan olasiz, Vatanning sarhadlarini ularga bo'lgan mehru muhabbatingiz bilan belgilaysiz. Buning isbotini "Izhoridil" she'ridagi satrlarda ko'rishimiz mumkin:

Ko'hna tolbeshidan

Boshlangan olam,

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim, deb,

Bir kuni onam –

Vatan,

Kimligingni

Bilmay sevaman!..[1.16-18-bet]

Shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq. U bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt «o'g'lim», deya unga mushtiq bo'lsa, har qanday mushkulotda Vatanga munosib farzand bo'lishi lozimligini "Vatanim "she'rida ham ko'rishimiz mumkin.

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.

Singlim deymi,

Onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi,

Oftobdan ham o'zing mehri

Ilig'imsan, Vatanim.[3.6-9- bet]

Muhammad Yusufning bu she'ri asosida yaratilgan qo'shiqni eshitmagan, uni xonanda bilan jo'r bo'lib birga aytmagan yurtdoshimiz bo'lmasa kerak. Bastakor she'r matniga mazmun-mohiyatiga shunchalar mos, ohangdosh musiqa topganki, go'yo shoir oldindan shu musiqani xirgoyi qilib ash'or bitganday ko'rinadi. Shoir shunday haqchil soddadil she'rlari bilan yuragimizga yaqin. Uning she'rlarini qancha o'qisak ham o'qib to'yimsiz, har o'qiganimizda

undan zavq olamiz. Shundan bo'lsa kerak shoirning har bir she'ri eng go'zal qo'shiqlarga aylanib, odamlar tili va diliga o'rnanib qolgan.

Shoir 2001- yilning 31- iyulida Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog'ida yurak xurujidan vafot etdi. Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug'ilishi, kamol topishi, o'zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi. Muhammad Yusufning ustozlari, zamondosh bir nechta shoir, yozuvchi va san'atkorlarimiz uning she'riyatiga o'zlarining fikrlarini bayon qilishgan. Shulardan namunalar keltirib o'tamiz.

"Muhammadjonning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yozilganga o'xshaydi. Ammo unga o'xshatib yozib ko'ring-chi! Qo'lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarini yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga tortadi. Odamlar uning she'rlarini hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblarini do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar.... Muhammadjon kamdan- kam tug'iladigan iste'dod egasi bo'lish bilan birga, kamdan-kam shoirda uchraydigan xislat egasi - shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratni emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi..."

Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston Qahramoni.

"Muhammad! Men agar Sizdan Vatanni sevishni, yorni suyishni, ardoqlashni asrashni o'rgandik, desam bu so'zimdagi qilcha mubolag'a yo'q... Siz atrofingizdagi bor mavjudotni jondan sevdigiz, qarqarali, nash'u namoli sevdigiz. O'pay desangiz "peshonasi yo'g qizg'aldoq"dan tortib, "ko'zi to'la yosh jayron" gacha.... Aytganlaringizning har satriga ko'zmunchoq taqib yashadik. Oriyat, g'urur, tiklik haqida har birimiz imkonimiz qadar nimalardir deganmiz, lekin birortamiz: "Bo'ynim egilguncha ketsin uzulib!" demaganmiz. Bunday baland pardalarga shu qadar osonlik bilan chiqish hammaga ham nasib qilavermaydi..."

Halima Xudoyberdieva, O'zbekiston Xalq shoiri.

"U kishining she'rlarida dard bor edi. Muhammad Yusuf xalq dardini tushunardi. Xalq uchun, Vatan uchun, Mustaqillik uchun yonib yozdi. Shu bilan birga inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yozdi. U kishining yuragi xalq yuragi bilan hamohang urardi..."

Yulduz Usmonova, O'zbekiston Xalq artisti [4.169-171- bet]

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hamma inson ham vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtning maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi deb o'ylaymiz. Shoir she'rlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning she'rlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, mo'tabarligi aks ettirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muhammad Yusuf .Xalq ,bo'l, elim."O'zbekiston".Toshkent-2005.
2. Adabiyot 8-sinf uchun darslik.G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2009.
3. Muhammad Yusuf."Saylanma".She'rlar.Dostonlar.Xotiralar."Sharq" Toshkent-2007

4. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. Birinchi kitob. "Innovatsiya -Ziyo". Toshkent-2022